

**XALQ OG‘ZAKI IJODI JANRLARINI O‘QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY AXBOROT
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA
AHAMIYATI**

Mashhura Qodirova,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b. (PhD)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida folklor janrlarini o‘qitishda talabalarda zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni oflayn va onlayn shakllantirish imkoniyatlari hamda bo‘ljak o‘qituvchilarni folklor janrlari bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish haqida fikr yuritiladi.*

***Tayanch so‘zlar:** folklor, kommunikatsiya, metodika, metod, innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, mustaqil ta‘lim.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются возможности формирования у учащихся необходимых знаний, навыков и умений в области преподавания фольклорных жанров с использованием информационно-коммуникационных технологий офлайн и онлайн, а также совершенствования методики формирования компетенций будущих учителей фольклорных жанров.*

***Ключевые слова:** фольклор, коммуникация, методика, метод, инновация, педагогическая технология, самостоятельное обучение.*

***Annotation.** This article discusses the possibilities of developing the necessary knowledge, skills and abilities in students in the field of teaching folklore genres using information and communication technologies offline and online, as well as improving the methodology for developing the competencies of future teachers of folklore genres.*

***Key words:** folklore, communication, methodology, method, innovation, pedagogical technology, independent learning.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda jahon Internet axborot tarmog‘ini keng rivojlanishi talabalar va o‘quvchilarga an‘anaviy (oflayn) ta‘lim berishdan tashqari masofaviy (onlayn) ta‘lim berish imkonini ham yaratdi. Bu ayniqsa 2020-yilda butun dunyoda va Respublikamizda boshlangan epidimiologik vaziyatda, pandemiya sharoitida majburiyat yuzasidan uyda qolib, ta‘limdan uzilgan o‘quvchi va talabalarga ta‘limni davom ettirish imkoniyatini beruvchi masofaviy ta‘lim shakli juda qulayligi amalda o‘z isbotini topdi. Bu borada ancha tajriba ham to‘plandi. Masofaviy ta‘lim yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, bu borada yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Masofaviy ta‘limni tashkil qilish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u ayniqsa fanning xususyatidan, talabada shakllantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiyalarga ham bog‘liq bo‘ladi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

K.Karimov o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, “Masofaviy ta’lim” deb umumiy nom bilan birlashgan butun bir ta’lim xizmatlari industriyasi paydo bo‘ldi va tezkor rivojlanmoqda, u ta’lim oluvchilarning juda ko‘pchilik sonini qamrab oladi va o‘zining o‘lchamlari va infrastrukturasi murakkabligi bilan lol qoldiradi. [1] Shu o‘rinda yana shuni ta’kidlash joizki, “Axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi o‘zlashtirilgan axborotlar miqdori bilan emas, balki o‘zlashtirilgan axborotlarni tegishli sohalar va hayotiy faoliyat davomida qo‘llay olish darajasi bilan belgilanadi.” [2]

Bo‘lajak o‘qituvchilarni folklor janrlari bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning quyidagi imkoniyatlarini qayd etish mumkin:

1. Hozirgi davr uchun zarur bo‘lgan innovatsiyalarni ta’lim sohasiga kiritish, yangi axborot texnologiyalaridan yanada unumli va keng foydalanish.

2. Videoma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar, seminarlar, televizor orqali tele-darslar, telegramm ijtimoiy tarmog‘ida slaydli va animatsion darslar va axborot texnologiyalariga asoslangan yangi ta’lim shakllari vujudga keldi.

3. Zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida ta’lim olishni takomillashtirishning yangicha loyihalash usullari shakllantirildi.

4. O‘quvchi ma’ruzalar matni, mavzular bo‘yicha taqdimot materiallari, audio va video darsliklar, elektron kutubxona, multimedia elektron darsliklar, stimulyator, o‘quv dasturlar, mustaqil ish topshiriqlari, ochiq va yopiq testlar bilan ishlay oladi.

5. Yaxlit pedagogik tizim sifatida mustaqil ta’lim jarayonida o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi ustoz-shogird munosabatlarini davom etishini ta’minlaydi.

6. Mustaqil ta’lim o‘qituvchi va bilim oluvchilarga turli axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish, o‘z ijtimoiy va kasbiy faolliklarini oshirishga erishish imkonini beradi. Xususan, nafaqat o‘z sohasini, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini puxta egallagan malakali mutaxassislarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

7. Mustaqil ta’limda andragogik hamda shaxsiy-faoliyatli yondashuvlar o‘zaro sintezlashtirilsa, yangi sifat bosqichiga erishish mumkin.

8. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida elektron resurslar hamkorlik pedagogikasi, an’anaviy o‘qitish, o‘quv topshiriqlari va amaliyot, interaktiv bahslar, modellashtirish, namoyish etish, yangilik kiritish, o‘yinlar, masala va muommolarni yechish, murabbiylik singari turli xil o‘quv vaziyatlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi.

9. Elektron pochta yoki telegramm orqali talaba bilan o‘qituvchi xohlagan vaqtda, qat’iy dars jadvalisiz o‘zaro bog‘lanishi mumkin.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Folklor janrlari bo‘yicha zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o‘qitishni takomillashtirishning asosiy texnologiyalari interaktivligiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. **Interaktiv texnologiyalar.** Bunga internet portali, video va audio konferensiyalar, elektron pochta orqali ta‘lim, internet orqali mustaqil ta‘lim olish, masofadan boshqarish tizimlari, onlayn stimulyator va o‘quv dasturlari, test topshirish tizimlari daxldordir.

2. **Interaktiv bo‘lmagan texnologiyalar.** Bunga video, audio va bosma holda chop etilgan materiallar, televizion va radio ko‘rsatuvlar, disklarda joylashgan dasturlar mansub hisoblanadi. [3]

Folklori o‘qitishni tashkil etishda uning **chat-mashg‘ulot, veb-mashg‘ulot** hamda **telekonferensiya** kabi shakllaridan ham foydalanish mumkin. Chat-mashg‘ulotlar sinxron shaklda, talabalarning belgilangan bir xil vaqtda chatga kirishi, veb-mashg‘ulotlar esa asinxron shaklda, telekommunikatsiya vositalari orqali anjuman, seminar, ish o‘yinlari, laboratoriya ishlari, amaliy mashg‘ulotlar ko‘rinishida davomli tashkil qilinishi bilan o‘zaro farqlanadi. Telekonferensiya esa elektron pochta yordamida ma‘lumot va axborotlarni yuborish orqali amalga oshiriladi.

Hozirda yurtimizda ko‘pgina oliy o‘quv yurtlarida ZOOM platformasi orqali onlayn darslar tashkil qilinib, ta‘lim muassasasining har bir professor-o‘qituvchisi bu platformaga videoma‘ruza, ma‘ruzalar matni, mavzular bo‘yicha taqdimot materiallari, mustaqil ish, ochiq va yopiq testlarni kiritib, o‘z vaqtida talabalarning bilimlarini baholab boryaptilar. Onlayn darslar an‘anaviy darsdan tubdan farq qiladi. Har bir o‘qituvchi-pedagogdan virtual auditoriyalarga moslashish, talabalardan esa mustaqil izlanishni talab qiladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida oliy ta‘lim sohasi zamonaviy axborot vositalari bilan boyitilishi natijasida ta‘lim sifatining yanada ortishi va professor-o‘qituvchilar hamda talabalar uchun ham qator qulayliklarga egaligi, shuningdek, talabalarning ijtimoiy va kasbiy faolliklarini oshirishga erishish mumkinligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Tanqidiy fikrlash amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o‘rganilgan o‘quv mavzusi bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda qabul qilish ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhitga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga, o‘z-o‘zini nazorat qilishga yordam beradi. Jamiyat taraqqiyoti va o‘quvchilar shaxsining tushunchasi ularning dunyoqarashiga ta‘sir ko‘rsatadi. Nutq va tafakkurni rivojlantira borishini hisobga olgan holda, adabiyot darsliklaridagi folklor o‘quv matnlari va ular bo‘yicha tavsiya qilingan topshiriqlarni takomillashtirib borish ta‘lim samaradorligiga xizmat qiladi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Folklor ta’limini oddiydan murakkabga, qadimiydan zamonaviyga qarab borish yo‘li bilan tashkil etish o‘quv-tarbiya muhitida o‘quvchilar ongliligi, mustaqilligi va faolligini ta’minlaydi. Bu jarayonning texnologiyasi pedagogik jarayonda kreativ kompetentligi rivojlangan o‘qituvchilar faoliyatida uchraydi. Bunday o‘qituvchilar oldin o‘rganilgan mavzuga oid dalillar ustida o‘quvchilar faoliyatini uyushtiradi. Kuzatilgan va tahlil qilingan dalillardan dastlabki xulosalar chiqariladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilar ijodkorligini ta’minlaydi.

Soddadan murakkabga qarab borish metodikasi o‘quvchilarning kreativ kompetensiyalari (matnlardan o‘rganilayotgan folklor hodisasiga oid dalillarni izlab topish, ularga sharhlar tayyorlash, xulosalar chiqarish; berilgan dalillar asosida matn tayyorlash, tayyorlangan matnni o‘rganilayotgan hodisa jihatidan tahlil qilish, mustaqil chiqarilgan xulosalarni darslikdagi berilgan ta’rif va qoidalar bilan taqqoslash; bir-biridan ajratilgan hajmi kichik matnlarni mazmuni bo‘yicha birlashtirib, nisbatan yirikroq, yaxlit matn holatiga keltirish)ning shakllanishiga xizmat qiladi.

Folklor janrlarini o‘zlashtirishni o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish maqsadida tashkil etish uchun janr tarkibidagi har bir belgi o‘rganiladi. Janr belgilarini janr tarkibidan topishni o‘rgatish talabi folklor ta’limini ijodiy tashkil etish imkoniyatini oshiradi. Folklor poetikasi bo‘yicha ma’lumotlar umumiy o‘rta ta’lim maktabining boshlang‘ich sinflaridan boshlab o‘rgatiladi. O‘quvchilar folklor janr va obrazlari, ularning an’anaviyligi, poetik funksiyalari, yozma adabiyotda uchraydigan janrlarga yaqinligi, farqi va shu kabi adabiy hodisalarni o‘rganish asosida har bir janr nomini o‘z o‘rnida ishlatish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Folklor fani murakkab tarkibga ega bo‘lib, u to‘rt turdan iborat: uning birinchi turini nasriy, ikkinchi turini she’riy, uchinchi turini dramatik va to‘rtinchi turini paremik janrlarga oid bilimlar tashkil etadi. Folklor fanidan o‘rganiladigan bilimlar, hosil qilinadigan malakalar o‘quvchi nutqi va tafakkurini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Folklor bo‘yicha biluv topshiriqlarini tuzish ko‘p faktorli hodisadir. Bunda o‘quv materialining mazmuni, biluv topshirig‘i shakliga olib kelinadigan o‘quv muammosi, o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlari bilan bir qatorda, biluv topshiriqlarining bir-birini to‘ldirishi, sodda va murakkabligi ham hisobga olinadi. Biluv topshirig‘i o‘quvchilarni o‘rganishga rag‘batlantirishi, fikrlashga jalb qilishi hamda nutq amaliyotini takomillashtirishi zarur. Biluv topshiriqlarini tuzishda quyidagilarga rioya qilish lozim:

optimal mavzu tanlanadi, shu mavzu doirasida hal qilinishi lozim bo‘lgan o‘quv muammolari aniqlanadi;

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

o‘quv muammolarini o‘quvchilarga qo‘yish yo‘li bilan o‘zlashtirish ko‘rsatgichini baholash usullari belgilanadi;

tashkil etiladigan o‘quv holatlariga mos til va nutq dalillari tanlanadi;

mavzuni o‘quvchilarning to‘liq o‘zlashtirishini mo‘ljallanib, mashqlar miqdori belgilanadi.

O‘quvchilar nutqini boyitish o‘qituvchidan qo‘shimcha o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish samarali metodlar asosida amaliyotga tatbiq etishni talab qiladi. O‘quvchilarning adabiy tilni egallashlari va nutqini boyitishda badiiy adabiyot namunalariga tayanish, matndagi so‘zlarning ma‘nosi, ma‘nodosh so‘zlar, qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar, uyadosh so‘zlar, ko‘p ma‘noli so‘zlar, poetik so‘zlar ustida ishlash, ularning uslubiy vazifasini aniqlash, nutqda qo‘llanadigan metodlardan foydalanish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ishlab chiqilishi ona tili o‘qitish metodikasidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunning ta‘lim mazmunini o‘qitish, o‘rganish jarayonida o‘quvchini ko‘proq o‘ylash, fikrlash, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga undaydigan didaktik jarayonni taqazo qilmoqda. Bu didaktik jarayon shunday bo‘lmog‘i lozimki, unda o‘qituvchi ham o‘quvchi ham bor imkoniyatini maksimal ishga sola olsin, o‘qitishning ta‘limiy tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalari to‘la amalga oshsin, shaxs kamolotini ta‘minlash uchun zamin yaratsin. Bunday mexanizm pedagogik texnologiyaning innovatsion metodlar majmuidir. Innovatsion metodlar uzluksiz ta‘lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonida ma‘lum o‘zgarishlarga, ta‘lim mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo‘ladigan turli xil tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarni faollashtirish texnologiyasining ilmiy-metodik ahamiyatini fanda yoritilishi muhimdir.

Muxtasar qilib aytganda, folklor fanini masofaviy o‘qitishning samarasi o‘quv materiallarining sifatiga va pedagoglarning mahoratiga hamda pedagogning axborot kommunikatsion texnologiyalardan o‘z o‘rnida mohirona foydalanishiga bog‘liq. Folklorni yosh avlodga o‘rgatish maktabgacha tarbiya, boshlang‘ich sinf, umumta‘limning yuqori sinflari, o‘rta maxsus ta‘limda akademik litsey o‘quvchilari, oliy ta‘limda uzviy va uzluksiz olib borilishi mos ravishdagi mazmun, shakl va metodlarni belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov K.A. Masofaviy ta‘limning axborot muhitini yaratishning metodik asoslarini ishlab chiqish: Pedagogika fanlari nomzodi ...diss. – Toshkent, 2012. – 164 b.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2. Safarova R. Nutqiy ko‘nikmalarni tekshirish asoslari. Boshlang‘ich ta‘lim j. – T.:1997. №5.
3. Raximov O.D., Turg‘unov O.M., Mustafaev Q.O. Oliy ta‘limda masofaviy o‘qitishni tashkil etish. Uslubiy qo‘llanma. – Qarshi, 2012. – 56 b.
4. Abdukadirov A.A. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2009. – 145 b.
5. Omanova M.A. Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence //Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. Volume 6, ISSUE 10, Oct. 2020 - P 415-419. (Impact Factor – 7.223).
6. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
7. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.